

## O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH O'ZLASHTIRISH OMILI

**Bozorboy Xusanov**

*Sam DAQU dotsenti*

*bozorboyxusanov98@gmail.com*

**Odilova Fayoz**

*Sam DAQU o'qituvchi*

*fayozadilova@gmail.com 0009-0001-4064-1721*

**Muqaddas Karimova**

*Oqdaryo tumani 47-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*mkarimova36@gmail.com*

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada mamlakatimizda jamiyatimizni modernizatsiyalash, iqtisodiyotga innovatsion g'oyalarni qo'llash masalalariga qaratilgan fikr va mulohazalar barcha ijtimoiy sohalar bilan bir qatorda oliy va o'rta ta'limda ham o'qitishni mazmun va shakl nuqtai nazardan yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.*

**Abstract:** *In this article, the thoughts and opinions focused on the modernization of our society, the application of innovative ideas to the economy serve as a scientific and methodological basis for further improvement of teaching in terms of content and form, as well as in all social spheres, in higher and secondary education.*

**Kalit so'zlar:** *motivatsiya, modernizatsiya, innovatsiya, axborot- resurs, klaster, keys, interfaol, aqliy hujum.*

O'quv jarayonida ilmiy- pedagogik, o'quv- uslubiy, axborot- resurs, ilmiy- texnik ta'limotning mazmunan bir-biriga bog'liqligiga erishish, bu jarayonlar yaxlitligini taminlash, ta'lim-tarbiyadagi bugungi hamda, iqtiboldagi muvaffaqiyatlarga erishish kalitidir. Talabalarimiz va o'quvchilarimiz ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada ko'paytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali qo'yilgan masala va muammolarni tahlil qila oladigan har tomonlama yetuk kadrlar bo'lishini taminlashimiz lozim. Bu esa hozirgi ta'lim usullarini takomillashtirish sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiyani joriy qilishdan iborat. O'qituvchi o'tilayotgan darsdagi mavzuni o'quvchilarga yetkazish jarayonida motivatsiyani to'g'ri tanlash, aniq hayotiy misollar va dalillar keltirish, ta'limiy texnikalardan to'g'ri foydalanish kerak bo'ladi. Bugungi kunda o'qitishning faol usullarini qo'llash pedagogik texnologiyalarni asosini tashkil qiladi. Mavzularni tushuntirishda "Klaster", "muammoli o'qitish", "aqliy hujum", va boshqalaridan hamda, fanning asosiy qonun va qoidalarini tushuntirishda esa "Tarmoq", "nima uchun", "Venn diagrammasi", "sehirlil raqamlar", "Keys" kabi interfaol usullarni qo'llash yaxshi natija beradi va o'quvchilarga fanga nisbatan qiziqish uyg'onadi, hamda ularni faolligini oshiradi va natijada o'zlashtirish darajasi oshadi. Bu usullarni qo'llab dars berish o'qituvchining "pedagogik mahoratiga" bog'liq. "Pedagogik mahorat" ta'lim- tarbiya jarayonini doim rivojlantirib, yuksak darajaga olib chiqish san'atidir. Hayotda hamma ham

mohir pedagog tarbiyachi bo‘lib tug‘ilmaydi, pedagog mahoratiga o‘quv tarbiya jarayonida o‘rganish, bilish, ko‘nikma va malaka orqali erishiladi. A.Makarenko “.....biz faqatgina pedagogik mahoratga tayana olamiz, demak, o‘qituvchi tarbiya jarayonini to‘liq, aniq bilishi shart” deb bekorga aytmagan. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan har qanday vaziyatdan chiqqa oladilar. O‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilimdonlik darajasiga samaradorligiga erisha oladilar, buning uchun o‘qituvchi o‘z kasbiy mahoratini oshira borishi uchun quyidagi asosiy vazifalarga etibor berishi zarur bo‘ladi. O‘quvchilar faoliyatning butun dars jarayonida boshqara olishi ya‘ni rejissyorlik mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Biz interfaol usullaridan biri bo‘lgan “Aqliy hujum” usuli mohiyati bilan tanishamiz. “Aqliy hujum” jamoa hamkorligi asosida qo‘yilgan muammoni yechish jarayonlariga vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga ajratishdan iborat. Dastlab guruhlar yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo yechimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimni o‘z ishi “g‘oyalariga” “hujum” qilishi, yoki baholashga haqqi yo‘q. Demak “Aqliy hujum” yo‘li bilan qisqa daqiqalarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammoni yechimini oqilona o‘ylab topish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta‘sirsiz g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini topishga salohiyatli imkoniyatlarni yaratadi. Shunday qilib “aqliy hujum” qoidalarini sanab chiqamiz:

- Olg‘a surilga g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi.
- Ish sifatiga emas soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi.
- Istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi.
- Muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi.
- Batcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mazmuni qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi.
- “Hujumni” o‘rnatish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart.
- Beriladigan savollarga qisqacha javoblar berish ko‘zda tutiladi.

“Aqliy hujum”ni vazifasi qiyin vaziyatlardan qutulish choralari topishga, muammoni ko‘rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash birxilligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon yaratadi. Eng asosiy jarayonda kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi va guruhlar yanada jiplashadi. “Aqliy hujum” ob‘ekti qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bu metod universal hisoblanib tadqiqodchilikka, ya‘ni yangi muammoni yechishga imkoniyat yaratadi. Rivojlantirishda ya‘ni o‘z-o‘zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantirishda asqotadi. “Aqliy hujum” tugagach muhimlik darajasiga ko‘ra eng yaxshi takliflar saralanadi va muammoni yechishga imkoniyat yaratiladi. Rivojlantirishda yani o‘z-o‘zini bir muncha samarali boshqarish asisida faol fikrlashni shakllantirishda asqotadi. “Aqliy hujum” tugagach muhimlik darajasiga ko‘ra eng yaxshi takliflar saralanadi va muammoni yechish uchun zarurlari saralanadi va guruh ishtirokchilari javoblariga asoslanib baholanadi.

Mana bu amerikacha “Aqliy hujum” metodi bilan qisman tanishdik. Aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz inkor va tanqid xususida aslida bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir. Hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o‘z aql mash‘alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimiz Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sin, Beruniy, al- Xorazmiy va

boshqalarni olamiz, yoki yetti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olamizmi, ular o'z muammolarini yechishda ana shu metodlardan keng foydalanganlar. Bobokalonimiz bu usulni boshqacha qo'llagan, ya'ni "Kengash", "Mashvarat", "Maslahat" deb atashgan. Masalan sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni yechishda "Mashvarat" chaqirib barcha saroy ahllarining, vaziru ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko'proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan "Mashvaratlar"da namoyon bo'ladi. Agar yarashishdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shunga ixtiyor qilardim" deb yozgan edi.

Bugun ana shular haqida o'yga tolib, "G'arb sharqdan o'rgangan" ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

"O'z-o'zini atteatatsiya qilish" usulida ham o'quvchilarni puxta bilim egallashga omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda guruh talabalari mos ravishda ( turli xil usulda, qanday usulda ajratishni, talabalarni o'zi bilishi mumkin) ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh ikkinchi guruhni, ikkinchi guruh esa o'z navbatida birinchi guruhni fan bo'yicha attestatsiyadan o'tkazadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi.

Guruhlarning har biri attestatsiya savollarini o'zlari tuzib, raqib guruhga beradi va noto'g'ri javoblarni to'g'rilaydi yoki to'liqsiz jarayonlarni to'ldiradi. Attestatsiya savollarini sodda yoki murakkab tuzilganligiga, to'g'ri javoblar soni va sifatiga ko'ra guruhlarni attestatsiyadan yaxshi "namunali" yoki "qoniqarli" o'tganligi aniqlandi. O'qituvchi attestatdiyadan yaxshi o'tganlarni yuqori ball, "qoniqarli" o'tganlarni esa pastroq ball bilan baholaydi. Shuning uchun har bir guruh ikkinchi guruhga murakkabroq savollar tuzib, berilgan savollarga to'g'ri javob topishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchi talabalarni yanada izlanishga, olgan bilimlarini mustahkamlashga olib keladi. Bundan tashqari ular bir birini o'qitadi, bir-biriga o'rgatadi. Oqibatda ular fan bo'yicha bilimlarini oshiradi va ularni uzoq vaqt yodda saqlab qoladilar. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, O'quvchilar:

- Maruza tanlaganlarida o'z eshitganlarini 5 foizini
- O'qiganlarini 10 foizini;
- Video rasm ko'rgazmalar ko'rganda bilimlarni 20 foizini;
- tajriba namoyish qilganda 30 foizini;
- Muzokara orqali birga tahlil qilganlarini 40 foizini;
- Mashq qilganlarida, yani o'qigan, yozgan, gapirganlarini 50 foizini;
- Ishbilarmon o'yinlar, loyiha usuli qo'llanilganda, mustaqil o'qiganlaridan, tahlil tahlil etilganlarida, ish himoya qilganlaridabilimlarini 75 foizini;
- Boshqalarni o'qitganlarida bilimlarini 90 foizini esda saqlar ekan. Demak, o'qitishning interfaol usullarini qo'llab, o'quvchilarni ko'proq amaliyotga o'rgatganimizda ular tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni 90 foizini o'zlashtiradilar.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda biz o'qituvchilardan ijodkorlik talab etiladi. O'qituvchi o'z fani bo'yichadarsni ijodkoriga aylansagina, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

## ADABIYOTLAR:

- [1] I. A. Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”- T. Sharq. N 1997- 64 b.
- [2] N.N.Azizxodjaeva “ Pedagogog texnologiya va pedogogik mahorat”, O‘quv qo‘llanma T. 2003 DTPU. -174 b.
- [3] B Husanov va boshqalar “O‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish va ularni tadbiqlari” “ Ta’lim va rivojlanish tahlili” ongiy ilmiy jurnal (6), 267-270 b. 2023y
- [4] Odilova, F. O., & Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. *Journal of Architectural Design*, 3, 7-11.
- [5] Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). ORGANIZATION OF PROTECTION GODS IN HISTORICAL CITIES. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827)*, 2(4), 69-76.
- [6] Odilova, F. O., Musurmonov, Q. T., & MA, J. (2024). BASIC CONCEPTS OF PROTECTING ARCHITECTURAL MONUMENTS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 798-806.
- [7] Odilova, F., Mamatkulov, U. B., & Muxtorov, Z. K. (2023). BASIC CONCEPTS OF TRAINING EXPERT-RESTORATOR FOR RECONSTRUCTION AND RESTORATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 291-299.
- [8] Fayoz, O., & Baljan, X. (2024). ANALYSIS OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL WORKS ON HISTORICAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(17), 403-406.
- [9] Husanov, B., Shodiyev, K., & Mehroj, V. (2024). FUNKSIYA EKSTRUMLARINI IQTISODIY VA QURULISH MASALALARINI YECHISHGA TADBIQI. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 11-16.
- [10] Khusanov, B., & Eldorovna, I. M. M. (2023). Application of the Derivative of a Function to Solving Economic Problems. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 289-293.
- [11] Husanov, B., Shodiyev, K., & Mehroj, V. (2024). TEKISLIKDA TO’G’RI CHIZIQ TENGLAMALARINI IQTISODIY MASALARNI YECHISHGA TADBIQI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 11-14.
- [12] Xusanov, B., & Kulmirzayeva, G. (2022). Distribution of isolated singular points of a special-type system in three-dimensional space. *Trans stellar journal of Engineering and Technology*, (2), 121-128.
- [13] Jurayeva, E., Fayoz, O., & Baljan, X. (2024). ARCHITECTURAL FORMATION PROCESSES OF KARSHI FORTRESS AREAS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 789-797.